

NUMERATIV BIRLIKLAR LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Gulziyra Kdirbaeva

*Nukus davlat pedagogika institute,
Ijtimoiy gumanitar fanlarni masofadan o'qitish,
Ph.D., dosent, Uzbekistan, Nukus*

Annotation: The presented article depicts cognitive-discursive approach in the process of study mythological peculiarities of the numeralogical units. The cognitive-discursive approach in language research has a broader meaning compared to the cognitive approach, it is considered to be a deeper description of the verbalization of the speech activity and the content of the speech. During speech (discursive) activity, the content forms that form the cognitive basis of the speech subject's language competence are implemented in language forms based on cognitive-propositional structures.

Key words: myth, units of mythological conceptual sphere, mythological worldview, cultural linguistics, cognitive linguistics, cognitive-discursive approach

Son va raqam og'zaki tilda tez-tez ma'nodosh sifatida qo'llanadi. Zero matematik nuqtai nazardan ularning farqlari mavjud, ular quyidagicha: son – narsalarning miqdori, sanog'i, adadini hisoblash uchun xizmat qiladigan vosita (matematik tushuncha); raqam – sonni ifodalovchi grafik belgidir.

Raqamni tahlil qilish uchun, bizning fikrimizcha, paremiologik birliklar bilan ishlash yordam beradi. Agar asosiy komponentlari otlar, fe'llar, sifatlar va boshqalar kabi nutq qismlari bo'lgan paremiyalar to'liq o'rganilgan bo'lsa, unda ularning tarkibidagi raqamlar mavjud bo'lgan barqaror birikmalar haqida gapirib bo'lmaydi.

Turli tizimga mansub ikki (ingliz va qoraqalpoq) tilni qiyoslayotganda lingvokulturologik komponentni hisobga olish uchun biz tilning paremiologik birliklarini tanladik, chunki paremiyalar (maqol va matallar) tilning milliy madaniy xususiyatlarini to'liq ochib beruvchi lisoniy birliklar hisoblanadi. Jumladan, paremiologik birliklar har qanday tilning «madaniy» qatlami, har qanday chet tilining eng tushunarli elementlari, shuning uchun ma'lum bir xalqning maqollarini bilish nafaqat tilni yaxshiroq o'zlashtirishga, balki ikki xalq o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yaxshilashga ham yordam beradi.

Til ma'lumotlarini xalqning ma'naviy va moddiy madaniyati bilan bevosita bog'liq holda ko'rib chiqishda sonlar semantikasida ma'lum qonuniyatlar ochiladi. "Xalq madaniyati tilida son mavhum, sof miqdor, tartib ma'nosidan tashqari qandaydir qo'shimcha ma'noga ega bo'ladi, ma'lum bir ma'no kasb etadi, baho va timsollash ob'ektiga aylanadi" [Tolstaya 2002: 43].

Raqamlarning nafaqat ijobiy, ularning salbiy konnotatsiyasi ham har bir millat madaniyatida ancha keng tarqalgan. Ularning shu ma'nolarini o'rganish salbiy ma'nodagi raqamlar "o'lim", "baxtsizlik", "yolg'izlik" kabi konseptlarni

gavdalantiradi va ularning etimologiyasini tadqiq qilish ularning mifologik konseptosferalar bilan aloqalarini ko'rsatib berdi. Bular qatoriga 4, 9, 13, 17, 26, 39 raqamlarini kiritsa bo'ladi.

Xitoy tilidagi taalaffuzi "o'lim" so'zi bilan birdek aytiladi, aynan shu sabab, Xitoy, Koreya va Yaponiyada 4 qavatni nomlash F harfi orqali amalga oshiriladi [Turner 2020: 178]. Zero, Germaniyada mazkur raqam omadli, sehrli va muqaddas raqam deb qabul qilinadi va buning sababi "to'rt bargli beda" bilan timsollanadi.

Yana bir misol, sehrgarlar olami Freyyaga o'tishni xohlaganlar 9 marta aylansa, shu maskanga tushishi folklor matnlarida ko'p uchraydi [Leafloor. 2018: 54]. 9 raqami Yaponiyaliklar uchun omadsiz raqam hisoblanishining asosiy sababi uning "qiynoq" so'zi bilan o'xshash yozilishida. Zotan, xitoyliklar uchun omadli, chunonchu bu imperator raqami. Norvegiyaliklar uchun tabarruk, omadli raqam hisoblanadi.

Norvegiya, Shvetsiya, Portugaliya va Buyuk Britaniya xalqlarining madaniyatida 13 raqami "baxtsizlik" konseptining voqelantiruvchisi hisoblanadi. Ammo italiyaliklar va amerikaliklar uchun mazkur raqam "omad" konseptining gavdalantiruvchisi deb topilgan.

17 raqami "omadsiz" konseptini voqelantiradi. Bu raqamning ham tavsifida tarixiy va lisoniy xususiyatlar mazkur raqamning salbiy ma'noda idrok etilishiga sabab bo'lgan. Jumladan, 17 raqami rim raqamlarida XVII shaklda yoziladi, agar ularning tarkibiga o'zgartirish kiritilsa, uning ma'nosi "Men yashadim, men bor edim" konnotatsiyasiga o'tadi va ushbu sintaktik birikma asosan qabr toshlarida qo'llanilgan.

26 raqamining omadsiz raqam ekanligi tarixiy voqealar bilan tabiat hodisalari bilan bog'liq bo'lib, aynan shu kuni amerikadagi ko'pchilik salbiy tarixiy voqealar va tabiat hodisalari sodir bo'lgan.

39 raqamining salbiy konnotatsiyasi so'z talaffuzi bilan bog'liq bo'lib, uning shu shaklda talaffuz qilinishi "o'lik sigir" ma'nosini ifodalaydi.

666 raqami nasroniylar dini bilan bog'liq bo'lib, "dajjol" konseptini ifodalaydi.

Kognitiv-diskursiv yondashuv asosida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, ko'p odamlar asosan raqamlarni oddiy hodisa deb bilishadi, chunki ular asrlararo odamlarning atrofida bo'lgan. Zero, ba'zi madaniyatlar uchun raqamlarning ma'nosi qadimgi an'analar va madaniy e'tiqodlar nuqtai nazaridan idrok etiladi. Inson hayoti bilan bog'liq bo'lgan ba'zi raqamlar ortida chuqur ruhiy va kognitiv ma'nolar yashiringan. Jumladan, ko'plab raqamlarning ramziy

ma'nolari ham aniqlandi, ular turli madaniyatlarda jismoniy dunyoga qanday ta'sir qilishini bilish uchun bu ma'nolarni chuqurroq tushunish muhimdir.

Raqamlarning jozibasi iqtisodiyot sohasida ko'rinadi, zero global biznes egalari shu go'zallikni voqelantirish maqsadida eng yaxshi marketing strategiyalarini yaratish uchun raqamlar va raqam birlashmalarining ma'nosini tushunishlari kerak. Bu ma'nolar ko'pincha avlodan-avlodga o'tib kelayotgan an'ana va e'tiqodlardan kelib chiqadi. Ularni tushunib idrok etish uchun, marketing materiallarini mahalliyashtirish va mahalliy madaniyatga mos keladigan mahsulot brendiga o'zgartirishlar kiritish kerak.

Adabiyotlar:

1. Чернева Н. П. Семантика и символика числа в национальной картине мира (на материале русской и болгарской идиоматики): автореф. дис. ... канд. филол. наук. М., 2003. 23 с.
2. Qaraqalpaq folklori. IV tom. Qaraqalpaq naqil maqallar. Nukus: Karakalpakstan, 1978. – 375 b.
3. Наурызбаева С.Т. Фразеологические единицы в каракалпакско-русском словаре. – Ташкент, 1972.
4. Macmillan Publishers Limited 2007. Text © A&C Black Publishers Ltd 2007.
5. Толстая С. М. Категория признака в символическом языке культуры (вместо предисловия)/ Признаковое пространство культуры. М.: Издательство «Индрик», 2002. -434 с.

Ajiniyaz atındađı
NÓKIS MÁMLEKETLIK
PEDAGOGIKALÍQ INSTITUTÍ
N M P I
1934